



TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-iyun

195-10-212-Q/25

Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 286-10-0-Q/25-sonli qarorining ijrosi to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi “2025-yilda energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish to`g`risida”gi 205-sonli qarori ijrosi yuzasidan Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 286-10-0-Q/25-sonli qarorining ijrosini taminlashda “Mahalliy hokimiyat to`g`risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 26-apreldagi 286-10-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yilda Toshkent tumani hududida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o`rnatish bo`yicha maqsadli ko`rsatkichlar 1-ilovaga muvofiq;

tuman bo`yicha elektr energiyasining 2025-yil prognoziga nisbatan iqtisod qilishning maqsadli ko`rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

tuman bo`yicha 2025-yil prognoziga nisbatan tabiiy gazni iqtisod qilishning maqsadli ko`rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

yoqilg`i-energetika resurslarini iqtisod qilish bo`yicha tashkiliy-texnik tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Tuman Elektr ta`minoti korxonasi” (E.Usmonxo`jayev) va “Toshkenttumangaz” gaz ta`minoti bo`limi (I.Mirxamid) elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi hamda tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimi orqali oyiga 500 kVt elektr energiyasi va 1000 kub metr dan ortiq tabiiy gaz iste`mol qilgan abonentlarni tahlil qilib borsin, shunindek, elektr energiyasi va tabiiy gaz bir oylik iste`molining bazaviy me`yorlaridan ortiqcha sarflangan iste`molchilarga muqobil energiya manbalari va tejamkor uskunalarni o`rnatish afzalliklarini

ma`lum qilish bo`yicha har oyda qo`shimcha SMS-xabarnoma yuborilishini ta`minlasin.

4. Qaror bilan quyidagilar belgilanganligi:

hududlarda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlarini kamaytirish bo`yicha ishchi guruhlar, tuman (shahar) ishchi guruhlari hamda bu boradagi ishlarni “mahallabay” tashkil etish bo`yicha ishchi guruhlar tashkil etilishi;

Energetika vazirligi, O`zenergoinspeksiya, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O`zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Uztransgaz” AJ, “Hududgazta`minot” AJ har oyda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlari tahlil asosida, ular eng ko`p bo`lgan mahallalarda, hududlarda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlarini kamaytirish ishlarini “mahallabay” tashkil etish bo`yicha ishchi guruhlari faoliyatini yo`lga qo`yib borilishi;

hududlarda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlarini kamaytirish bo`yicha ishchi guruhlar rahbarlarining ro`yxati 8-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

hududlarda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlarini kamaytirish bo`yicha tuman (shahar) ishchi guruhlarning namunaviy tarkibi va ularning vazifalari 10-ilovaga muvofiq;

hududlarda yoqilg`i-energetika resurslari yo`qotishlarini kamaytirish bo`yicha ishchi guruhlar ishlarini mahallabay tashkil etish bo`yicha ishchi guruhlarning namunaviy tarkibi va ularning vazifalari 11-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-apreldagi 133-sonli qaroriga muvofiq tuzilgan har bir tuman (shahar) kesimida energiya balansini ishlab chiqish, ularning ko`rsatkichlarini bajarish, energiyani tejash dasturlari ijrosini ta`minlash, energiya samaradorligini oshirish bo`yicha tuman (shahar) idoralararo ishchi guruhlarning a`zolari asosiy ish joyidan ajralgan hamda lavozim maoshi saqlab qolingan holda ustuvor vazifalarini 2025-yil davomida amalga oshirilishi belgilanganligi;

2025-yil 1-iyuldan boshlab:

ko`p xonadonli uylar, jamoat binolarini taom tayyorlash, issiq suv, isitish va sovitish tizimi elektrlashtirilgan yoki muqobil manbalar orqali ta`minlangan hamda binolarning energiya samaradorlik toifasi “A” toifa bo`lgan holda loyihalashtirish joriy etiladi;

yangi quriladigan barcha (shu jumladan, davlat va xususiy) jamoat bino-inshootlari (ta`lim muassasalari, sog`liqni saqlash, madaniyat va turizm, umumiy ovqatlanish, xizmat ko`rsatish obyektlari, sport komplekslari va boshqalar), ko`p kvartirali uy-joylar, shu jumladan, “Yangi O`zbekiston” massivlari (markazlashgan issiqlik ta`minotiga ulanishi mo`ljallangan uy-joylardan tashqari), shuningdek, umumiy maydoni ming kvadrat metrdan katta

boʻlgan barcha savdo-koʻngilochar markazlarning bino-inshootlarini loyihalashtirish va ishga tushirishda sovitish va issiqlik taʼminoti tizimlarini elektr energiyasi va muqobil energiya manbalarida ishlaydigan energiyani tejaydigan va energiya jihatidan samarador texnologiyalar joriy etiladi;

uch yil muddatda hududlarda AGTSHKni loyihalashtirish va qurish, boshqa turdagi yoqilgʻi quyish shohobchalari faoliyatini siqilgan gaz toʻldirishga oʻzgartirish hamda yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻzda tutmaydigan, texnologik jarayonlarida tabiiy gazga muqobil yoqilgʻi turidan foydalanish imkoni mavjud boʻlgan yuridik shaxslarga tabiiy gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar berishga moratoriy eʼlon qilinadi;

tabiiy gaz yetib borishi qiyin boʻlgan hududlar muqobil boʻlgan energiya manbalarga oʻtkazilishi;

byudjet tashkilotlariga oʻrnatiladigan quyosh panellarining moliyalashtirish manbai etib quyidagilar belgilanganligi;

xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning grantlari, imtiyozli kreditlari va boshqa maqsadli mablagʻlari;

byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari;

mahalliy byudjet mablagʻlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

davlat-xususiy sheriklik bitimlari doirasidagi mablagʻlar, qonunchilik hujjatlari bilan taʼqiqlanmagan boshqa manbalar;

2025-yil 1-maydan yangi qurilayotgan koʻp kvartirali uylar va ijtimoiy soha obyektlariga tabiiy gaz tarmogʻiga ulanishi uchun texnik shart berilishi toʻxtatilishi inobatga olinsin.

5. Tuman hokimi matbuot kotibi (D.Ismailova), Toshkent tumani Adliya boʻlimi (Sh.Tadjibayev), “Mahalla yettiligi” va taʼminot korxonalarini bilan birgalikda energetika tizimidagi oʻzgarishlar hamda energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida, internet tarmogʻi va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish boʻyicha media-reja ishlab chiqsin.

Bunda quyidagilarga alohida eʼtibor qaratilsin:

aholi va keng jamoatchilik orasida elektr energiyasi va tabiiy gaz arzonlashtirilgan narxlarda yetkazib berilayotganligi boʻyicha tushuntirish ishlari olib borish;

aholi va ujugurji isteʼmolchilar orasida muqobil energiya manbalari va tejamkor uskunalarni oʻrnatish orqali energiya resurslarining tejalihi haqida targʻibot tadbirlarini amalga oshirish;

buklet va flayerlarni tarqatish hamda ijtimoiy roliklarni namoyish etib borish orqali aholi xabardorligini oshirib borish;

aholi gavjum joylarda, yirik savdo majmualarida hamda reklama tablolarida energiya resurslaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirishga qaratilgan targ`ibot ishlarini olib borish;

ommaviy axborot vositalari orqali energiya resurslarining tariflarida ko`zda tutilgan o`zgarishlar hamda narxlarini xorijiy mamlakatlardagi narxlar bilan taqqoslash orqali tayyorlangan infografika va tahliliy ma`lumotlarni keng ommaga yetkazib borsin.

6. Tuman hokimining barcha o`rinbosarlari o`z majmualari tarkibiga kiruvchi bo`lim va tashkilotlarga sohalar bo`yicha belgilangan reja-ko`rsatkichlar ijrosi yuzasidan doimiy nazorat o`rnatib, har oy hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin.

Bunda dastur ijrosining o`z vaqtida va to`liq bajarilishiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo`yilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Ergashev

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 20-iyundagi
195-10-212-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**2025 yilda kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbaalari qurilmalarini o'rnatish bo'yicha
MAQSADLI KO'RSATKICHLAR**

№	Tuman	Jami				Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari				Aholi xonadonlari				Ko'p qavatli uylar		Tadbirkorlik subyektlari			
		quyosh panel		geliokollektor		quyosh panel		geliokollektor		quyosh panel		geliokollektor		quyosh panel		quyosh panel		geliokollektor	
		obyekt soni	quvvati mVt	obyekt soni	xajm ming litr	obyekt soni	quvvati mVt	obyekt soni	xajm ming litr	obyekt soni	quvvati mVt	obyekt soni	xajm ming litr	obyekt soni	quvvati mVt	obyekt soni	quvvati mVt	obyekt soni	quvvati mVt
1	Toshkent	487	1,61	20	2300	18	0,25	1	200	339	0,36	17	1700	3	0,03	127	0,98	2	400

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 20-iyundagi
195-10-212-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Toshkent tumani bo'yicha tabiiy gazni 2025 yil prognozga nisbatan iqtisod qilishning
MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

№	Tuman va shaharlar nomi	Yillik ko'rsatkich				shundan oylar kesimida											
		2025 yil dastlabki prognoz	iqtisod qilish		iqtisodda n keyingi prognoz iste'moli	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
			hajmi	prognozga nisbatan (%)													
	Toshkent tuman	287,2	18,1	6,3	269,1	0,0	1,0	4,8	1,2	0,6	0,5	0,6	0,8	0,8	1,6	1,4	5,0
	Aholi	247,0	16,9	6,8	230,2	0,0	1,0	4,4	1,2	0,5	0,3	0,6	0,5	0,6	1,6	1,2	5,0
	AGTKSh	2,0	0,1	4,3	1,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
	Ulgurji	38,2	1,2	3,1	37,0	0,0	0,0	0,3	0,0	0,1	0,1	0,0	0,2	0,2	0,0	0,2	0,000

Toshkent tumani hokimining
2025-yil 20-iyundagi
195-10-212-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Toshkent tumani buyicha elektr energiyasini 2025 yil prognozga nisbatan iqtisod qilishning

MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yillik ko'rsatkich															
		2025 yil prognoz iste'moli	iqtisod qilish		iqtisoddan keyingi prognoz iste'moli	yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr	oktabr	noyabr	dekabr
			hajmi (mln kVt. soat)	prognozga nisbatan (%)													
18	Toshkent tumani	317,0	15,8	4,98	301,2	0,786	0,943	1,911	1,911	1,911	1,100	0,864	1,571	1,571	1,571	0,786	0,862
shu jumladan																	
	<i>Aholi</i>	108,3	5,4	4,98	102,9	0,268	0,322	0,653	0,653	0,653	0,376	0,295	0,537	0,537	0,537	0,268	0,294
	<i>Ulgurji</i>	208,7	10,4	4,98	198,3	0,517	0,621	1,259	1,259	1,259	0,724	0,569	1,034	1,034	1,034	0,517	0,568